


Amudaryo oromgohini mavsumga tayyorlash bo'yicha vazifalar belgilandi

Image not found or type unknown



Amudaryo oromgohini mavsumga tayyorlash bo'yicha vazifalar belgilandi

Termiz shahrida, Surxon daryosining bo'yida joylashgan "Amudaryo" oromgohi har yili yoz mavsumida minglab bolalarni o'z bag'riga oladi. Barcha sharoitlarga ega bo'lgan

oromgohda yozgi mavsumga tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda.

Bugun viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov ushbu oromgohda bo'lib, mavsumga tayyorgarlik ishlariini ko'zdan kechirdi. Hududda obodonlashtirish ishlarini olib borish, mavjud plyajni tozalash, sanitariya holatini yaxshilash, oromgoh binolarini tartibga keltirish, jihozlarni yangilash bo'yicha mas'ullarga topshiriq berildi.

Shuningdek, belgilangan vazifalarni joriy yil 25 may kuniga qadar yakunlash va bitiruvchilar uchun oromgohda madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish topshirildi.

Image not found or type unknown




Image not found or type unknown




Image not found or type unknown




Image not found or type unknown

